

## INGLIZ TILIDA “SADOQAT” KONSEPTINING LEKSIKOGRAFIK TALQINI VA KOGNITIV-SEMANTIK TUZILISHI

Umurzaqova Aziza Baxtiyor qizi

Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti

[aziza.umurzakova1999@gmail.com](mailto:aziza.umurzakova1999@gmail.com)

ORCID ID 0009-001-3885-9377

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18747713>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ingliz tilida loyalty konseptiga oid birliklar leksikografik manbalar hamda tanlab olingan empirik matnlar asosida tahlil qilinadi. Bunda Oxford English Dictionary, Merriam-Webster, Cambridge va Collins kabi nufuzli izohli lug'atlar asosida “sadoqat” konseptini ifodalovchi birliklarning semantik yadrosi aniqlanib, sinonimik va antonimik maydoni tizimli ravishda o'rganildi. Tahlillar natijasida ingliz tilida loyalty konsepti yadro-yaqin periferiya-chehka periferiya tizimi asosida tashkil topgan ko'p qatlamli konseptual maydon sifatida tavsiflandi. Shuningdek, tanlab olingan diskurs materiallari asosida sadoqat tushunchasining uch qatlamli kognitiv-semantik tuzilmasi ishlab chiqildi.

**Kalit so'zlar:** sadoqat, loyalty, leksikografik tahlil, yadro-periferiya tizimi, sinonimiya, antonimiya, kognitiv-semantik tahlil.

**Аннотация.** В данной статье анализируются языковые единицы, связанные с концептом loyalty в английском языке, на основе лексикографических источников и отобранных эмпирических текстов. На материале авторитетных толковых словарей, таких как Oxford English Dictionary, Merriam-Webster, Cambridge и Collins, выявляется семантическое ядро единиц, репрезентирующих концепт «лояльность», а также системно исследуются его синонимическое и антонимическое поля. Результаты анализа показывают, что концепт loyalty в английском языке представляет собой многослойное концептуальное поле, организованное по модели ядро – ближняя периферия – дальняя периферия. Кроме того, на основе дискурсивного материала разработана трехуровневая когнитивно-семантическая структура понятия лояльности.

**Ключевые слова:** лояльность, loyalty, лексикографический анализ, модель ядро–периферия, синонимия, антонимия, когнитивно-семантический анализ.

**Abstract.** This article analyzes linguistic units related to the concept of loyalty in English on the basis of lexicographic sources and selected empirical texts. Using authoritative explanatory dictionaries such as the Oxford English Dictionary, Merriam-Webster, Cambridge, and Collins, the semantic core of lexical items expressing the concept of “loyalty” is identified, and its synonymous and antonymous fields are systematically examined. The results demonstrate that the concept of loyalty in English constitutes a multi-layered conceptual field organized according to the core–near periphery–far periphery model. In addition, based on selected discourse materials, a three-layer cognitive-semantic structure of the loyalty concept is developed.

**Keywords:** loyalty, lexicographic analysis, core–periphery model, synonymy, antonymy, cognitive-semantic analysis.

**Kirish.** “Sadoqat” tushunchasi global miqyosda insoniy munosabatlarning asosini tashkil etuvchi, millatlar o'rtasidagi ahillikni, yuksak axloqiy, ijtimoiy hamda shaxsiy ma'naviy sifatlar sifatida e'tirof etiladi. Uning fundamental semantik yadrosi, odatda, sodiqlik, vafodorlik, fidoyilik, mustahkam ishonch, berilganlik kabi umuminsoniy axloqiy fazilatlarni o'zida mujassam etadi. Bu jihatdan, “sadoqat” konseptining mazmuni har qanday til va madaniyatda insonlarning o'zaro ishonch, majburiyat va munosabatlarni

qadrlash mexanizmlarini aks ettiruvchi universal kognitiv kategoriya sifatida qaralishi mumkin. Biroq, aynan ana shu universal yadroga qaramay, mazkur konseptning turli tillar madaniyatidagi leksik bazasi, semantik maydonining strukturasi, atov birliklari, ularning pragmatik qo‘llanilish kontekstlari va madaniy konnotatsiyalarida sezilarli farqlar mavjud. Aynan ana shu farqlarni ochib berishda eng muhim jarayon har bir tilning leksik bazasi va undagi leksemalarning leksikografik xususiyati hisoblanadi. Mazkur maqolada ingliz tilida “sadoqat” konseptining leksikografik talqini quyidagi mezonlar asosida tahlil qilinadi:

- a) lug‘at tariflari va tarkibi;
- b) polisemiya’dagi ma’no qatlamlari va ularning tartibi;
- c) stilistik belgilari (rasmiy, neytral, tarixiy);
- d) obyekt yo‘nalishi (kimga yoki nimaga);
- e) derivatsion va sinonimik kengayish.

Tahlil davomida ingliz tilida “sadoqat” konseptini ifodalovchi birliklarning umumiy semantik yadrosi – *sodiqlik, va’daga vafu, munosabatlarda vafodorlik* semasini saqlagan holda, har bir birliklarning differensial qirralari lug‘at misollari orqali aniqlanadi va bu leksikografik tahlillar konseptual maydonning yadro – yaqin periferiya – chekka periferiya modelini ishlab chiqishda empirik tayanch vazifasini bajaradi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Mazkur tadqiqotda ingliz tilida “sadoqat” konseptining leksikografik talqini va semantik tuzilishini aniqlash maqsadida kompleks metodologik yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot deskriptiv-analitik, qiyosiy-semantik hamda kognitiv modellashtirish metodlariga asoslanadi.

Tahlilning empirik bazasi sifatida ingliz tilida eng ko‘p qo‘llaniladigan Oxford English Dictionary (OED), Cambridge Advanced Learners’ Dictionary, Merriam-Webster’s Dictionary, Collins English Dictionary, American Heritage Dictionary va boshqa maxsus lug‘atlardan foydalanildi. Ushbu manbalar *loyalty* leksemasining tarixiy rivoji, semantic qatlamlari, stilistik xususiyatlari va obyekt yo‘nalishini aniqlashga imkon berib asosiy leksikografik korpus sifatida xizmat qildi.

Tadqiqot quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

Avvalo, *loyalty* leksemasining lug‘atlardagi tariflari tizimli ravishda tahlil qilinib, uning asosiy semalari (faithfulness, obligation, allegiance, devotion, commitment) ajratib olindi. Komponent tahlil usuli yordamida har bir tariflardagi semantik komponentlar aniqlandi va umumlashtirildi.

Ikkinchi bosqichda “sadoqat” konseptining boy sinonimik va antonimik maydoni Merriam-Webster Thesaurus, korpus manbalari (COCA, BNC) hamda boshqa leksikografik manbalarga tayangan holda aniqlanib, semantik yaqinligi, stilistik xususiyatlari va diskursiy cheklanishiga ko‘ra guruhlandi. Ushbu tahlil natijasida ingliz tilida *loyalty* konseptining yadro-yaqin periferiya-chekka periferiya modeli ishlab chiqildi.

Uchinchi bosqichda tanlab olingan 40 ta empirik kontekst (siyosiy, oilaviy rasmiy diskurs namunalaridan iborat) asosida *loyalty* konseptining real nutqiy vaziyatlarda

qo'llanilishi o'rganildi. Diskursiv tahlil yordamida ushbu kontekslarda sadoqat tushunchasining obyekt yo'nalishi va hissiy komponentlari aniqlandi.

So'nggi bosqichda olib borilgan keng qamrovli leksikografik tahlil va tanlab olingan empirik matnlar (40 ta kontekst: siyosiy, oilaviy, rasmiy) natijalariga asoslanib, ingliz tilida *loyalty* konseptini talqin qilish uchun har bir leksik birlik tarkibidagi asosiy semalarga asoslanib uch qatlamli kognitiv-semantik tuzilma ishlab chiqildi. Ushbu tuzilma *institutional loyalty*, *moral loyalty* va *emotional loyalty* kabi qatlamlarni o'z ichiga olib, ingliz tilida "sadoqat" konseptining ijtimoiy majburiyatdan shaxsiy hissiy bog'lanishgacha bo'lgan semantik evolyutsiyasini aks ettiradi.

Tahlil davomida konseptual modellashtirish usuli yordamida har bir qatlam uchun dominant semalar aniqlandi hamda ularning o'zaro ierarxik munosabatlari belgilandi. Natijalar yadro-periferiya tamoyili asosida vizual model shaklida tizimlashtirildi. Mazkur metodologik yondashuv *loyalty* konseptining ingliz tilidagi leksik-semantik tuzilishini kompleks tarzda ochib berish imkonini yaratdi hamda sadoqat tushunchasi nafaqat axloqiy fazilat, balki ko'p qatlamli kognitiv tuzilma sifatida talqin qilishga xizmat qildi.

## NATIJA VA MUHOKAMA.

### 3.1 Loyalty leksemasining leksikografik tavsifi

1-jadval. Ingliz tili izohli lug'atlarida "loyalty" leksemasining leksikografik tavsifi

	Lug'at	Qisqacha ta'rif	Asosiy semalar
1	Oxford English Dictionary (OED)	Faithful adherence to one's promise, oath, word of honor	va'daga vafo, qasam, so'zga sodiqlik
2	Merriam-Webster Thesaurus	Adherence to something to which one is bound by a pledge or duty	burch, majburiyat, sodiqlik
3	Merriam-Webster Dictionary	The quality or state or an instance of being loyal (faithful in allegiance to one's government; faithful to a private person/ a cause/ ideal/ custom/ institution or product)	Sodiqlik, burch, itoat, vafodorlik
4	Collins English Dictionary	The quality of staying firm in friendship or support for someone or something	munosabatlarda sodiqlik, qo'llab quvvatlash
5	Cambridge Advanced Learner's Dictionary	Quality of being loyal (being firm and not changing in friendship, support for a person or an organization, or beliefs in principles)	qat'iylik, munosabatlarda sodiqlik, ishonch,
6	Webster's Dictionary 1828	Fidelity to a prince or sovereign, or to a husband or lover	Sodiqlik, vafodorlik

Bu ta'riflardan ko'rinadiki, ingliz tilida *sadoqat* tushunchasi odatda biror obyektga yo'naltirilgan: shaxsga (turмуsh o'rtoqqa, do'stga); tashkilotga (kompaniya, brend); g'oyaga (tamoyil, e'tiqod) yoki davlatga qaratilgan bo'lishi mumkin.

**3.2 Sinonimik maydon va yadro-periferiya modeli.** Ingliz tilida "*loyalty*" so'ziga yaqin ma'nodagi bir qator sinonimlar mavjud bo'lib, ularning har biri sadoqat tushunchasining muayyan qirralarini ifodalaydi. Merriam-Webster lug'atida "*loyalty*" so'zining asosiy sinonimlar sifatida *allegiance*, *commitment*, *dedication*, *devotion*, *fidelity*,

*faithfulness, fealty, steadfastness, attachment, adhesion, faith, constancy, piety* keltirilgan. Bu sinonimlar o'rtasida nozik semantik farqlar mavjud: masalan, *loyalty* umumiy sodiqlikni anglatrsa, *allegiance* ko'proq fuqaroning davlatga yoki bayroqqa sadoqati ma'nosini beradi; *devotion* esa sadoqatni jo'shqin muhabbat va o'zini qurbon qilish darajasidagi fidoyilik sifatida ta'riflaydi. *Fealty* esa rasmiy qasamyod orqali tasdiqlangan vassallik sadoqati ohangiga ega bo'lib, sadoqatni majburiyat tarzida ko'rsatadi. *Fidelity* odatda qat'iy vafodorlikni, turmushdagi sadoqatni ifodalasa, *piety* (xudoga yoki ota-onaga nisbatan sadoqat) muqaddas burchga sodiqlikni urg'ulaydi. Ingliz tilidagi bu sinonimik boylik "sadoqat" konseptining turli kontekstlarda rang-barang ifodalanishini ko'rsatadi. Ularning barchasi *loyalty*ga yaqin bo'lsa-da, har biri stilistik va konnotativ jihatdan bir-biridan biroz farq qiladi. Shuningdek, qo'llanish doirasi va uslubi nuqtayi nazaridan ham farqlar bor: real diskurs materiallariga tayangan holda aytish mumkinki, *allegiance* ko'proq siyosiy va huquqiy diskursda, *fidelity* esa oilaviy va axloqiy kontekstlarda faol qo'llanadi, *loyalty* esa semantik jihatdan eng universal birlik hisoblanadi va ularning bir-birini to'liq almashtira olmasligi konseptual maydonning ichki differensiasiyani tasdiqlaydi.

Ingliz tilida *sadoqat* konseptini ifodalovchi birliklarning leksikografik ta'riflari va sinonimik qatori tahlili asosida yadro-periferiya tizimi analitik tahlil sifatida ishlab chiqildi. Bunda *loyalty* leksemasi semantik neytralligi, keng qo'llanilish doirasi (shaxsiy, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy, iqtisodiy) va kuchli emotsional-stilistik betarafligiga ko'ra semantik maydonning yadro qismida joylashgan birlik sifatida tanlab olindi. Uning sinonimlari *sadoqat* tushunchasini ifodalash darajasiga ko'ra yaqin va chekka periferiyalardan o'rin oladi. Mazkur tahlilda sinonimlar *loyalty*ga mutlaq ekvivalentlar sifatida emas, balki konseptual maydonning turli darajalarida joylashgan leksik birliklar sifatida ko'rib chiqiladi. Yaqin periferiya maydoniga *loyalty* bilan ma'nodosh bo'lib, uning muayyan semasini kuchaytiruvchi leksemalar mansub. Bu qatlamga *faithfulness, fidelity, commitment, devotion, allegiance* kabi birliklar kiradi. *Fidelity* sadoqat tushunchasining munosabatlarda qat'iy sodiqlik, xiyonat qilmaslik, va'daga vafo qilish semalariga urg'u bersa, *faithfulness* halollik, e'tiqod va axloqiy barqarorlikni ifodalaydi. *Commitment* *loyalty*ning zamonaviy, pragmatik talqini bo'lib, uning amaliy tarafiga urg'u beradi. *Devotion* esa sadoqatning kuchli hissiy tomonini ko'rsatadi. Mazkur birliklar, *loyalty*ga yaqin ma'nodosh bo'lsa-da, har biri muayyan semaga urg'u berganligi sababli yadro emas, yaqin periferiyada joylashadi.

Chekka periferiya qatlami *loyalty*ning semantik tor, diskursiv yoki tarixiy jihatdan cheklangan ko'rinishlarini ifodalovchi birliklarni qamrab oladi. Masalan, bunga *fealty, piety, constancy, attachment, patriotism, trustworthiness, reliability* kabi birliklar mansub. Mazkur birliklar "sadoqat" konseptinining to'liq semantik yadrosini qamrab olmay, uning ma'lum bir doirada chegaralangan, tarixiy cheklangan va kontekstga bog'langan ko'rinishlarini ifodalaydi.

*Loyalty* leksemasining yadro semantikasi obyektga yo‘naltirilgan sodiqlik (a person, institution or principle) ni anglatadi. Chekka periferiya birliklarida esa ushbu obyektga yo‘naltirilganlik zaiflashadi yoki ikkilamchi tus oladi. Masalan, *trustworthiness* va *reliability* leksemalari shaxsning ishonchlilik, barqarorlik xususiyatlarini ifodalaydi va bu birliklarda “kimga yoki nimaga sodiq” degan savol ochiq qoladi. Ular obyektga yo‘nalganlik semasini to‘liq aks ettirmaydi va shu bois konseptual maydon markazidan uzoqlashib, chekka periferiyadan o‘rin oladi.

Demak, ingliz tilida *loyalty* konsepti, yaxlit, o‘zgarmas tuzilma emas, balki ko‘p qatlamli, funksional jihatdan tabaqalashgan konseptual maydon sifatida namoyon bo‘ladi. Bunday yondashuv ingliz tilida “sadoqat” konseptining mazmunan boy va moslashuvchan ekanligini ko‘rsatadi hamda uning turli nutqiy vaziyatlarda qanday shakllarda namoyon bo‘lishini aniqroq tushuntirishga imkon beradi.

**1-rasm.** Ingliz tilida sadoqat konseptining yadro – yaqin periferiya – chekka periferiya tizimi asosida semantik tuzilishi.



**3.3 Antonimik maydon.** Ingliz tilida “sadoqat” konseptining antonimlari ham keng qamrovga ega bo‘lib, ular mazkur tushunchasining aksi sifatida *xiyonat*, *bevafoqlik* va *ishonchsizlik* semalarini ifodalaydi. *Loyalty*ning aksi sifatida asosan *disloyalty*, *treachery*, *perfidy*, *infidelity*, *faithlessness*, *unfaithfulness* kabi birliklardan foydalaniladi. Ushbu antonimlar turli kontekstlarda sadoqat konseptiga nisbatan oppozitsion semantik maydonni shakllantiradi: masalan, *treachery* va *perfidy* rasmiy (davlat va tashkilotga nisbatan) sadoqatning buzilishini, *infidelity* va *faithlessness* axloqiy munosabatlarda bevafoqlikni, *disloyalty* esa umumiy sodiqlikning yo‘qligini anglatadi. *To betray one’s trust, a traitor to the cause* kabi turg‘un birikmalar esa mazkur konseptning aks fazilatlarini – xiyonat,

bevafolik, ishonchsizlikni ifodalab, “sadoqat – xiyonat” oppozitsiyasining ingliz tilida qat’iy semantik chegaraga ega ekanligini ko’rsatadi.

**3.4 Loyalty konseptining uch qatlamli kognitiv-semantik tuzilmasi.** Keng qamrovli leksikografik tahlil va diskurs materiallariga tayangan holda ingliz tilida loyalty konseptining uch qatlamli kognitiv-semantik tuzilmasi ishlab chiqildi. Ushbu tuzilma ingliz tilida sadoqat tushunchasining tarixiy, semantik va funksional rivojlanishini izchil tarzda aks ettiradi. Unga ko’ra, ingliz tilida *loyalty* konsepti quyidagi uch asosiy semantik qatlamdan iborat:

1. **Institutional loyalty** – davlat, hukmdor, qonun, tashkilot yoki rasmiy tuzilmalarga nisbatan burch, itoat va majburiyat asosida shakllangan sadoqat turi. Mazkur qatlamga quyidagi asosiy semalarni o’z ichiga olgan birliklar kiritiladi:

- formal obligation (rasmiy majburiyat)
- legal allegiance (huquqiy bo’ysunish)
- authority-oriented loyalty (hokimiyatga yo’naltirilgan sadoqat)

Shu asosda *allegiance* va *fealty* kabi leksemalar rasmiy-siyosiy qatlamdan joy oladi. Siyosiy diskursda *allegiance*, odatda, fuqaroning davlatga burchini ifoda etadi (“citizens swear allegiance to the constitution”), *fealty* esa tarixiy kontekstda hukmdorga qasamyod, vassallik munosabatlarini ifodalaydi (“knights pledged fealty to their lord”). Har ikkala birlikda sadoqat hissiy tuyg’u emas, ijtimoiy majburiyat sifatida namoyon bo’ladi.

2. **Moral loyalty** – shaxsning ichki qadriyatlari, halolligi va va’daga vafo tamoyillariga asoslangan ko’rinishi. Bunda sadoqat tashqi majburiyatdan ko’ra, ichki axloqiy mas’uliyat sifatida talqin qilinadi. Bu qatlamning asosiy semalari quyidagilar:

- faithfulness (vafo)
- ethical commitment (axloqiy majburiyat)
- promise-keeping (va’daga sodiqlik)
- trust-based attachment (ishonchga asoslangan bog’lanish)

Ushbu qatlamga *fidelity*, *faithfulness* kabi leksemalar kiritilib, ular emotsional sadoqatdan ko’ra axloqiy ma’suliyatni kuchliroq aks ettiradi. Masalan, *fidelity* asosan oilaviy kontekstda ishlatilib, axloqiy me’zon sifatida talqin qilinadi. (marital fidelity).

3. **Emotional loyalty** – chuqur his-tuyg’u, muhabbat va fidoyilikka asoslangan sadoqat turi bo’lib, u shaxsning biror obyektga: shaxs, g’oya yoki e’tiqodga hissiy bog’lanishi bilan xarakterlanadi. Bu qatlam quyidagi asosiy semalar orqali ajratiladi:

- deep emotional attachment (chuqur hissiy bog’liqlik);
- affective devotion (mehrqa asoslangan fidoyilik)
- personal dedication (shaxsiy bag’ishlanish)

Sadoqatning bu turi *devotion* leksemasida aniq ifodasini topadi. *Devotion* shaxsning biror shaxs, g’oya yoki faoliyatga bo’lgan kuchli hissiy sadoqatini ifodalaydi va unda rasmiy yoki axloqiy majburiyatdan ko’ra ichki hissiyot ustun turadi.

Tahlil natijalari *loyalty* konseptini faqatgina axloqiy fazilat sifatida emas, balki ijtimoiy majburiyatdan ichki axloqiy va emotsional barqarorlikka o'tuvchi semantik tizim sifatida talqin qilish imkonini beradi va mazkur konseptni chuqurroq va tizimliroq anglashga xizmat qiladi.

**Xulosa.** Mazkur maqolada ingliz tilida *loyalty* konseptining leksik-semantik tuzilishini leksikografik manbalar va tanlab olingan empirik matnlar asosida tahlil qilindi. Olingan natijalar "sadoqat" tushunchasining ingliz tilida yadro–yaqin periferiya–chekka periferiya tamoyili asosida tashkil topgan ko'p qatlamli konseptual maydon ekanini ko'rsatdi. Loyalty leksemasi semantik neytralligi va keng qo'llanilish doirasi tufayli maydon yadrosini tashkil etadi, uning sinonimlari esa ma'nosi va diskursiy cheklanishiga ko'ra periferiya zonalaridan joy oladi. Tahlil natijalari ingliz tilida "sadoqat" konseptining funksional moslashuvchanligini ko'rsatib, kelgusida ingliz va o'zbek tillarida qiyosiy-lingvomadaniy izlanishlar olib borish uchun nazariy asos yaratadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Oxford English Dictionary: online edition. – Oxford: Oxford University Press, URL: <https://www.oed.com>
2. Merriam-Webster Dictionary: online edition. – Springfield, MA: Merriam-Webster, Inc., URL: <https://www.merriam-webster.com>
3. Cambridge Advanced Learner's Dictionary. – Cambridge: Cambridge University Press, URL: <https://dictionary.cambridge.org>
4. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – 242 p.
5. Langacker R. Foundations of Cognitive Grammar. Vol. 1. – Stanford: Stanford University Press, 1987. – 516 p.
6. Kövecses Z. Metaphor: A Practical Introduction. – Oxford: Oxford University Press, 2010. – 285 p.
7. Карасик В. И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2002. – 331 с.